

2025
№12

ISSN 3060-527X

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR.



**TA'LIMDA ISTIQBOLLI
IZLANISHLAR**
Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

**ПЕРСПЕКТИВНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ**
Международный научно-методический
журнал

**PROSPECTIVE RESEARCH IN
EDUCATION**
International scientific methodological
journal

№ 12-Son, 1-Qism 2025-yil

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA:

<i>DOLZARB MAZVU</i>			
Xuseynova Amanovna	Abira	Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning liderlik salohiyatini shakllantirishning psixologik jihatlar	6
<i>PSIXOLOGIYA</i>			
Xasanov Sadikovich	Muzafar	Kasbiy tayyorgarlik muammosining pedagogik-psixologik manbalardagi talqini	13
Axmedova Jamilovna	Zarrina	Talabalarning dual ta'lim tizimiga moslashuvining psixologik xususiyatlari	16
Kabulova Baxadirovna	Saboxat	Ota-onalik kompetensiyasiga ijtimoiy-psixologik yondashuvlarning nazariy tahlili	20
Barnoyeva Rasulovna	Yulduz	Ajralish holatlarining bola psixikasiga ta'siri: psixologik tahlil	24
Turgunov Raximjonovich	Baxromjon	Raqamli muhitda talaba yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	32
Jumayev Zayniddinovich	Nodir	O'smirlarda fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish	37
Kalandarova Baxadirovna	Madina	Ilk bolalik yoshidagi farzandli ayollarning onalikdan mamnunlik sifatleri tahlili	43
Xudoyberdiyeva Saidabonu qizi	Yorqinjon	Talabalarda irodaviy sifatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	48
Jabborova Feruza Majidovna		Boshlang'ich ta'lim jarayonida o'qituvchi emotsiyalarini boshqarishning psixologik mexanizmlari	54
Bakhramova Ato Husniddin Sadridin o'g'li	Abira	Psychological aspects of teacher training.	59
Inoyatova Marjona Salimjon qizi		Shaxs ijodkorligini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari	65
Mamajonova Shaxzodaxon Yoqubjon qizi		O'smirlik davrida affiliatsiya motivini shakllanishining psixologik determinantlari	71
Begnazarova Zulfiya Muxammedovna, Xujaniyozova Oygul Rajabovna		Psixologiyada sohasida psixometrik o'lchovlarning nazariy-amaliy ahamiyati	78
Yuldoshev Jahongir Tilakmurodovich, Allayorova Feruza Sohbnazar qizi		O'smirlik davridagi o'quvchilarni emotsional xususiyatlari va inqiroz holatlarini metodikalar tavsifi	81
Xudoyorova Madina Xolmo'min qizi		Faoliyatli yondashuv asosida ijodiy tafakkurni shakllantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlari	85
Mirkasimova Zilola Alisherovna		Oilaviy baxtning shaxs taraqqiyoti va ta'limdagi ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'siri	93
		Ona tili barobarida xorijiy tillarni o'rganish lingvopsixologiyasi	97

Sa'dullayeva Maftunaxon Nuriddin qizi	Befarzand oilalarda shaxslararo munosabatlar o'rganilishning nazariy tahlili	101
Samarova Shoxista Rabidjanovna	O'quvchilarning fikrlash jarayonlari psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi	106
Salayeva Navbahar	Zamonaviy shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik muammolari	111
Shixova Inobat Omonovna	Turli yosh davrlarida tafakkur muammosini o'rganishda psixologik metodlarning o'rni	117
Raxmonova Zarifa Ne'matovna	Talabalarda axloqiy qadriyatni shakllantirish	123
Matchanova Dilbar Yusupboyevna	Talabalarda fabbing xulq-atvorining psixologik determinantlari	127
Suleymanov Baxoriddin Jumanazarovich	Akademik litsey o'quvchilarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning psixologik asoslari	131
Rahmatova Nasiba Sobirovna	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda hissiy-irodaviy xususiyatlar shakllanishi psixologik muammo sifatida	136
Olimova Fotima Botirovna	Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari	142
Sahiyeva Matluba Toshpulat qizi	Yangi O'zbekiston yoshlarida ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari tahlili	146
Jurakulova Dildora Ziyodullayevna	Oiladagi psixologik zo'ravonlikning o'smirlar xulqiga ta'siri va uni bartaraf etish	152
Karimov Sherzod Abdurasulovich	O'quvchilarda muvaffaqiyat motivatsiyasini kuchaytirishning psixologik asoslari	157
Karimova Zulayxo Isrofil qizi	Talabalar kasbiy identifikatsiyasi o'quv motivatsiyasi sifatida	160
Rashidova Gulnoza G'ulomovna	Ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirishning tarbiyaviy jarayondagi o'rni	165
Sadikova Umida Botirovna	Qandli diabetga chalingan bemorlarning psixoemotsional xususiyatlari	169
Sh.L.Rahmonova	Bolalarning psixik rivojlanishi	173
Jaqsımuratova Elmira Sarsenovna	Qoraqalpoq xalq an'analari asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishning psixologik imkoniyatlari	179
Askarova Nargiza Abdivaliyevna, Izzatullayeva Mehruza	Talabalarda stressli vaziyatlarga nisbatan coping-strategiyalarni shakllantirish	185
Axmatova Guli Xurram qizi	O'smirdagi salbiy o'zgarishlarning psixologik tahlil	190
Badritdinova Madina Baxromovna	Uzluksiz ta'limda tarbiyaviy texnologiyaning psixologik ahamiyati	196
Baratova Dilafruz Olimjonovna	Noto'liq oilalarda ota-onalik roliga ustanovka	199
Batirov Zafar Lutfullayevich, Lutfullayeva Marjona Zafar qizi	Yosh o'quvchilarning ijtimoiy shaxsiy rivojlantirish uchun psixologik va pedagogik sharoitlar	204

Rustamova Go'zal Xolmuhammad qizi	O'smir psixologik barqarorligida ota-ona o'rtasidagi emotsional munosabatlarning o'rni	210
Mirzayev Sardor Amrillayevich	Ijtimoiy persepsiyani rivojlantirishda pedagogik fanlar tizimining metodik imkoniyatlari	216
Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	Ingliz tilini o'rganishda uchraydigan psixologik to'siqlar va ularni bartaraf qilish usullari	221
Kurbanova Shaxodat Tashpulatovna	Yosh va o'rta yosh oilalarda destruktiv munosabatlarni o'rganishning metodik tahlili	225
Mahmudov Siroj	O'smirlik davrida ta'limiga nisbatan emotsional munosabatning shakllanishiga o'quv motivatsiyasining ta'siri	231
Рустамов Шавкат Шухратович Ахтимова Ферангиз Гайрат кизи	Социально-психологические детерминанты формирования креативного мышления у подростков с агрессивным поведением	238
Baxronova Aziza Abduraufovna	Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiya vositalari orqali ilm-fan tabiat markazida tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	247
Boqijonov Rasuljon Ravshanjon o'g'li	Ko'zi ojiz o'quvchilarning ijtimoiy va psixologik moslashuvini oshirish omillari	251
Ikramova Nigina Aminovna	Maktabgacha ta'lim muassasalarida interaktiv texnologiyalardan foydalanish tajribasi	255
Djurayeva Sohiba Barat qizi	Kar va zaif eshituvchi bolalar bilish jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari	259
Mamatqulov Botir Jovli o'g'li	Hozirgi o'zbek nasrida shaxs fojiasining badiiy – psixologik asoslari (nazar eshonqul, erkin norsafar hikoyalari asosida)	269
Ahmadbekova Risolatxon Botirali qizi	Etnomadaniyat, etnolingvistik xususiyatlar tarixi va ushbu sohaga doir tadqiqotlarning psixologik tavsifi	273
Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi	Bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy-tizimli dunyoqarashni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	280
Turopova Ug'iloy Botirovna	Virtual kommunikativ madaniyat ijtimoiy psixologik muammo sifatida	285
Djurayev Toshpo'lat Saxiyevich	O'smirlar ijobiy xulq-atvorini shakllantirishda milliy va madaniy omillarning o'rni	289
Raximov G'ulomjon Davronbekovich	Havaskor sportchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasining psixologik asoslari	294
Soliyev Farhod Ruhshona Olimova	Individual imijni shakllantirishda o'z-o'zini anglashning roli	298
Odamova O'g'iljon Kenjayevna	Ta'lim muassasalarida psixologik xizmatning samaradorligini oshirishda ertak terapiyasining o'rni	302
Itolmasova Nafisa Furqatovna	Kasbiy qobiliyat tushunchasi va uning psixologik asoslari	307
Qodirova Maftuna Ilhom	Sun'iy intellekt bilan ishlashda stress va kognitiv moslashuv o'rtasidagi bog'liqlik	311
Davletova Xosiyat Sapavoy qizi	Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda pedagogik tafakkur va o'zini anglash nazariyasi	316
Rajabova Lobar Madiyorovna	Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish muammosiga nazariy va amaliy jihatdan yondashuv	320

Iskandarov Erkin G'ayrat o'g'li	Shaxs shakllanishidagi psixologik mexanizmlarning o'rni	324
A.O. Dawkeeva	Talabalarning o'ziga ishonchini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy psixologik omillar tahlili	329
Najiyeva Sojida Nasirdinova	Talabalar ijodiy faoliyatining ta'lim jarayonidagi pedagogik va psixologik o'ziga xosligi	333
Julmatova Saodat Jur'atjon qizi	The psychological role of music in the development of creative abilities in adolescents	338
Yusupova Vasila Yangibayevna	Maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarining emotsional madaniyati va uning ijtimoiy determinantlari	342
Фозилова Сабохат Дочь Надира	Психологические механизмы развития экологического сознания в различные возрастные периоды	347
Rahmonov Bahodir Abduhomidovich	Talabalarning kasbiy motivatsiyasini oshirishning psixologik mexanizmlari: elektron ta'lim muhitida integrativ yondashu	351
Qodirov Mirzaakram Sobirjonovich	Talabalarda profayling ko'nikmalarini shakllantirishning xususiyatlari	356
Muxammadiyev Baxtiyor Jurayevich	O'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	362
Urunov Aziz Shakirovich	O'spirinlarda konativ xulq-atvorning rivojlanish omillari	367
Jo'rayev Sodiqjon Muxammadinovich	IIV akademik litseyi o'spirin o'quvchilarida kasbiy motivatsiya rivojlanishini belgilovchi psixologik indikatorlar	371
Abira Bakhramova	Psychological aspects of teacher training.	376
Xamzayeva Muqaddas Fayzullaevna	Innovatsion kompetensiya asosida ingliz tilini o'qitishning psixologik-pedagogik omillari	382
Ashirova Anorgul Ismoilovna	Talabalarning o'quv ehtiyojlariga moslashtirilgan o'qitish tizimini yaratish va qo'llanilishi	386
Baxtiyor O'rolovich Turg'unov	Ommaviy sportni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali mexanizmlari	391
Nuradinov Furqatjon Rashidovich Eshpo'latov Bekzod Muxiddin o'g'li	O'smir yigitlarni axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlarning ahamiyati	395
Oxunov Ilxomjon Abdunabiyeovich Abdunabiyeva Baxoroy Ikromjon qizi	Ta'limda innovatsion yondashuv va zamonaviy o'qitishda ta'lim samaradorligini oshirish tendensiyalari	401
Karimov Jamshid To'liqin o'g'li	Jomiy tafakkurida inson mohiyati va ma'naviy kamolotning pedagogik asoslari	406
Keldiyorova Manzura G'aybullayevna	Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik qobiliyatni rivojlantirish omillari	412
Xaytova Farida Kuchkarovna	Ta'limiy o'yinlar asosida ko'zi ojiz bolalar nutq buzulishlarini korreksiyalashga nazariy yondashuv	418
Xujaniyozova Oygul Rajabovna	O'smir yoshdagi o'quvchilarning psixofiziologik rivojlanish omillari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri	423
Niyozqulov Mirjalol Baxtiyorovich	Boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarini o'qitish metodlari va vositalari	428

Berdiyeva Eshonqul qizi	Sadoqat	Globalashuv sharoitida inklyuziv ta'limning ilmiy-pedagogik asoslari	433
Karimbayeva Salomatxon		Jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotida ijtimoiy fanlarning roli	439
Suyunov Xujamqul o'g'li	Mirjalol	Ichki ishlar tizimi uchun inspektor-psixologlar tayyorlash jarayonida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari	445
Otanazarova Alisher qizi	Xosiyat	Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining psixologik ta'siri	451
Xusanova Askarovna	Madina	Matnni anglash malakalarini rivojlantirishda interfaol metodlarning pedagogik imkoniyatlari	456
Махмудова У.Б.		Выживание как испытание веры и разума: взаимодействие человека и природы в романах даниэля дефо и янна мартеля	460
Лукашова Михайловна	Наталья	Теоретические и методологические основы интеграции социальных наук в современной системе образования	465
Djumabayeva Nasibahon Abdumalik qizi		Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot savodxonligini shakllantirishning zamonaviy metodikalari: milliy va xorijiy tajriba	473
Муродходжаева Малика		Система частей речи в русском и узбекском языках: сходства и различия	480
Sharipov Maqsudovich	Sherzod	Bolalar musiqa va san'at maktablarida xalq cholg'ulari bo'yicha kompetentlikni oshirish: kompetensiyaviy yondashuv va o'quv natijalarini baholash modeli	485
Toshmatov Rustamjon Mo'ydinjon o'g'li		Bo'lajak harbiy xizmatchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	490
Nozimov Toxirovich	Jaxongir	Masofaviy ta'lim jarayonida talabalarda motivatsion hissini shakllantirishning psixologik xususiyatlari	496
Xaytova Kuchkarovna	Farida	Ta'limiy o'yinlar asosida ko'zi ojiz bolalar nutq buzulishlarini korreksiyalashga nazariy yondashuv	503

Xaytova Farida Kuchkarovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Mustaqil izlanuvchisi
fhaitova35@gmail.com

TA'LIMIY O'YINLAR ASOSIDA KO'ZI OJIZ BOLALAR NUTQ BUZULISHLARINI KORREKSIYALASHGA NAZARIY YONDASHUV

Annotatsiya. Mazkur maqolada ko'zi ojiz bolalarda uchraydigan nutq buzilishlarining psixologik-pedagogik xususiyatlari hamda ularni ta'limiy o'yinlar vositasida korreksiyalashga nazariy yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tiflopedagogika va logopediya fanlarida mavjud nazariy qarashlar tahlil qilinib, ta'limiy o'yinlarning kompensator, rivojlantiruvchi va motivatsion imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Ko'zi ojiz bolalar, nutq buzilishlari, ta'limiy o'yinlar, korreksion ishlar, tiflopedagogika, logopediya, inklyuziv ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматриваются психолого-педагогические особенности речевых расстройств у слепых детей и теоретические подходы к их коррекции с помощью развивающих игр. В ходе исследования проанализированы существующие теоретические взгляды в дисциплинах тифлопедагогики и логопедии, а также обоснованы компенсаторные, развивающие и мотивационные возможности развивающих игр.

Ключевые слова: Слепые дети, речевые расстройства, развивающие игры, коррекционная работа, тифлопедагогика, логопедия, инклюзивное образование.

Abstract. This article discusses the psychological and pedagogical characteristics of speech disorders in blind children and theoretical approaches to their correction using educational games. In the course of the research, the existing theoretical views in the disciplines of typhlopedagogy and speech therapy were analyzed, and the compensatory, developmental and motivational capabilities of educational games were substantiated.

Key words: Blind children, speech disorders, educational games, correctional work, typhlopedagogy, speech therapy, inclusive education.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning barcha bo'g'inlarida sifat va samaradorlikni oshirish hamda alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun teng imkoniyatlarni yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti sharoitida har bir shaxsning intellektual va ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish ta'limning asosiy maqsadiga aylangan bo'lib, bu jarayonda maxsus ta'lim yo'nalishlarining ilmiy-metodik jihatdan takomillashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalar orasida ko'zi ojiz bolalar o'ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ko'rish analizatorining yetishmasligi atrof-muhitni idrok etish jarayonining cheklanishiga olib kelib, bilish faoliyatining shakllanishiga, xususan, nutq rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ko'zi ojiz bolalarda so'z boyligining cheklanganligi, grammatik tuzilmalarning noto'g'ri qo'llanishi, fonematik eshituvning yetarli darajada rivojlanmaganligi va bog'lanishli nutqdagi qiyinchiliklar tez-tez uchraydi.

Mazkur nutqiy kamchiliklar bolaning o'quv faoliyatiga, muloqotga kirishishiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'zi ojiz bolalarda nutq buzilishlari ko'pincha ikkilamchi xarakterga ega bo'lib, ular ko'rish nuqsoni natijasida yuzaga keladigan idrokiy cheklanishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli nutqni korreksiyalash jarayoni faqat logopedik mashqlar bilan chegaralanmasdan, bolaning saqlangan sezgi imkoniyatlariga tayangan holda tashkil etilishi

lozim. Bunda eshitish, teginish va harakat sezgilarini faollashtiruvchi pedagogik vositalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Taniqli psixolog olim L.S.Vigotskiy ta'limning asosiy vazifasi g'ayritabiiy bolani hayotga olib kirish, uning ijtimoiy dislokatsiyasini tuzatish, ya'ni insonning ijtimoiy qiyofasini belgilaydigan xatti-harakatlardagi og'ishlarni bartaraf etish. Shu munosabat bilan u shunday deb yozgan edi: "Ehtimol, ertami-kechmi insoniyat ko'rlikni ham, karlikni ham, aqldan ozishni ham yengadi. Lekin ularni tibbiy va biologik jihatdan emas, balki ijtimoiy va pedagogik jihatdan ancha tez mag'lub etadi". L.S.Vigotskiy g'ayritabiiy bola tanasining kompensatsion qobiliyati g'oyasini faol rivojlantirdi. U g'ayritabiiy bolalar bilan tuzatish – olim pedagogik ishning boshlang'ich nuqtasini bola tanasining saqlanib qolgan, anomaliyadan eng kam ta'sirlangan yoki unga ta'sir qilmagan holati deb hisobladi".

Zamonaviy maxsus pedagogika va logopediya fanlarida ta'limiy o'yinlar bolalarning nutqiy faolligini oshirish, motivatsiyasini kuchaytirish hamda kompensator mexanizmlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida qaralmoqda. O'yin faoliyati bolaning tabiiy qiziqishlariga mos kelib, nutqiy jarayonlarni majburiylik va faol ishtirok asosida shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda ta'limiy o'yinlarning umumiy pedagogik ahamiyati keng yoritilgan bo'lsa-da, ularning aynan ko'zi ojiz bolalar nutq buzilishlarini korreksiyalashdagi tizimli va ilmiy asoslangan metodik imkoniyatlari yetarli darajada ochib berilmagan.

Ko'zi ojiz insonlarning psixikasini o'rganishga rus olimi M.I.Zemsov katta hissa qo'shgan. U o'zining "Ko'zi ojizlikni qoplash yo'llari" asarida ko'zi ojizlikning aqliy rivojlanishga ta'siri va paydo bo'lgan og'ishlar uchun kompensatsiya shakllariga oid o'ta muhim ilmiy xulosalarni ishlab chiqadi. U biologik va ijtimoiy kompensatsiya omillari o'rtasidagi munosabatlarning dialektikasini ilm-fanga ko'rsatib berdi.

Ushbu muammo bilan shug'ullangan olimlar: A.G.Litvak, M.E.Xvatsev, B.G.Ananiyev, A.V.Yarmolenko, A.I.Zotovlardir.

R.V.Ovcharova psixologik-pedagogik yordamga to'liqroq ta'rif beradi. Muallifning fikricha, birinchi holda, u shaxsni qo'llab-quvvatlash va uni qiyin, muammoli vaziyatlarda yo'naltirish, shuningdek, individual-shaxsiy salohiyatning tabiiy rivojlanishi bilan birga keladi. Ikkinchi holda, bu optimal ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ta'minlash, psixologik salomatlikni saqlash va bola shaxsiyatining har tomonlama rivojlanishi va uning shakllanishini ta'minlash uchun turli xil psixologik usullar bilan ifodalangan o'zaro bog'liq tadbirlar majmuasidir.

1908-yil Vilyam Danton ko'zi ojizlarning ruhiyati ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi. Bir qator tadqiqotchilar: A.A.Krognus, K.Bruklen, M.S.Pevzner, K.Myullerlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. Ko'pchilik psixolog, tiflopsixologlarning xulosalariga qaraganda ko'zi ojizlarda ruhiy kamchiliklar sog'lom odamlarga qaraganda ko'proq uchraydi. Kichik yoshli bolalarda ruhiy kamchiliklar, kasalliklar deyarli sezilmaydi. Chunki bu injiqliklar, to'xtovsiz yig'lash, qo'llarni, boshni silkitish, tepinishni ko'pincha oddiy erkalik, injiqlikka yo'yishadi. Vaqt o'tishi bilan kasallikning turli ko'rinishlari aniqroq namoyon bo'la boshlaydi: Bola maktabga borganida mashg'ulotlarda beparvo, diqqati o'ta tarqoq, o'z qobig'iga o'ralib olish, nutqning yetarli rivojlanmaganligi va boshqalar.

Meshkovning so'zlariga ko'ra, ko'rish nuqsonidan kelib chiqadigan zarar insonning kognitiv sohasi bilan cheklanib qolmasdan, uning butun shaxsiyatiga ta'sir qiladi.

Ko'r va zaif ko'rish uchun kompensatsiya nazariyalari (M.I.Zemsova, L.I. Solnseva) asosida ko'rishning buzilishini qoplash bosqichlarining tamoyillari va tarkibini hisobga olgan holda, biz teginish hissi rivojlanishining psixologik va pedagogik shartlarini aniqladik. Birinchi bosqichga ko'ra teginish hissi rivojlanishining asosiy sharti teginishning motor-kinestetik komponentlarini shakllantirishdir: obyektlarning turli xossalari va sifatlarini idrok etish uchun asos yaratish; ikkinchisiga ko'ra, teginish orqali hissiy tajribani to'plash; uchinchi va

to'rtinchiga ko'ra – amaliy faoliyatda teginish orqali obyektlar haqida tabaqalashtirilgan g'oyalarni shakllantirish.

N.Abidova “Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqida kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari” mavzusidagi tadqiqotida binokulyar ko'rish va ko'z-harakat funksiyalarining buzilishi predmetlarning shakli, kattaligi, muayyan makonda joylashishini idrok etish hamda monokulyar ko'rishda makromakonda hajmli predmetlarni ajratish, obyektlar o'rtasidagi masofani, ularning joylashishi va o'zaro munosabatlarini nisbatlashda murakkabliklar aniqlangan. Ma'lumki, perseptiv imkoniyatlarning kamayishi predmetli-amaliy harakatlarning rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi. Ko'rish darajasi va o'z-o'zini nazorat qilishning yetarli emasligi voqelikdagi predmet va hodisalar bilan harakatlar natijaliligi kamayishiga olib keladi. Predmetli harakatlar bilan ko'rgazmali-obrazli harakatlar natijaliligi o'rtasida uzilish kuzatiladi. Bolalar o'zlarining predmetli harakatlarini o'z nutqida tavsiflashga qiynaladi, harakatlarning verballigi kuzatiladi, deb ta'kidlangan.

Natijalar. Respublikamiz olimlaridan, S.M.Dangalov o'zining “Ko'zi ojiz bolalarga savod o'rgatish metodikasini takomillashtirish” bo'yicha tadqiqot ishlarida “Ko'zi ojiz bolalarni savodga o'rgatish - ularning sensor rivojlanishi, fazoviy tasavvuri, mustaqil harakatlanishi va psixologik tayyorgarligiga tayanadigan murakkab pedagogik jarayon deb hisoblaydi.

“Ko'zi ojiz bolalarni savodga o'rgatishda Brayl tizimi, Brayl pribori, grifel, kolodka, bo'rtma chizg'ichlar, geometrik moslamalar, ovozli kalkulyatorlar, audio kitoblar kabi zamonaviy vositalar hamda tiflotexnika vositalari markaziy o'rinni egallaydi”.

O'zbekistonda maxsus ta'lim sohasi bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilib kelingan. Bu tadqiqotlarda mavzuga oid turli masalalar muhokama qilingan. Xususan, R.Shomahmudova maxsus ta'lim nogiron va maxsus ehtiyojli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan, bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirish va umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi ekanligini deb ta'rif berib o'tgan.

L.R.Mo'minovaning tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning nutq nuqsonlarini korreksiyalashga qaratilgan pedagogik faoliyatning nazariy asoslarini boyitdi. Uning ilmiy ishlari doirasida bolalarni logopedik tekshirish va o'qitishning o'ziga xos metodikasi ishlab chiqilib, amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, olima tomonidan inklyuziv ta'lim yo'nalishida berilgan bir qator tavsiyalar amaliy samaradorligini isbotlagan.

L.Sh.Nurmuhammedovaning “Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari” ilmiy tadqiqotlari doirasida oilada nogiron farzandi bor ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari, qiyinchiliklari va ijtimoiy-pedagogik, psixologik ko'rsatmalarga muhtojligi tahlil qilingan va bir qator ilmiy natijalar olingan.

Muhokama. Ko'zi ojiz bolalarda nutq rivojlanishi umumiy psixik taraqqiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ko'rish analizatorining yetishmasligi natijasida nutqiy faoliyatda turli xil buzilishlar kuzatiladi. Ayniqsa, so'z boyligining kamligi, grammatik tuzilmalarning noto'g'ri qo'llanishi, fonematik eshituvning yetarlicha rivojlanmaganligi va bog'lanishli nutqdagi qiyinchiliklar ko'zi ojiz bolalar nutqiga xos muammolar sifatida namoyon bo'ladi.

Defektologiya, logopediya va tiflopedagogika fanlarida ta'kidlanishicha, ko'zi ojiz bolalarda nutqni korreksiyalash jarayoni maxsus pedagogik sharoitlarni, individual yondashuvni hamda samarali metod va vositalarni talab etadi. Ana shunday samarali vositalardan biri - **ta'limiy o'yinlar** hisoblanadi.

Ta'limiy o'yinlardan foydalanishning asosiy metodik tamoyillari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan: 1-jadval

№	Metodik tamoyil	Amaliy tadbiq
1	Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan logopedik mashg'ulotlarda ta'limiy o'yinlardan tizimli foydalanish;	Mashg'ulotlar rejasida o'yin faoliyatini muntazam kiritish, mashg'ulot davomida o'yinlarni izchil qo'llash;
2	O'yinlarni bolaning individual psixologik va nutqiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda tanlash;	Har bir bolaning qobiliyatiga mos o'yinlarni tanlash, murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirish;
3	Tiflopedagog va Logopedlar hamkorligini kuchaytirish;	Maxsus pedagog va logopedning birgalikda mashg'ulot rejasini tuzishi, o'yin jarayonini kuzatishi;
4	Ta'limiy o'yinlarga asoslangan metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;	Maxsus dasturlar, qo'llanmalar va o'yin vositalarini ishlab chiqish, ularni amaliyotda qo'llash;

Xulosa. Ko'zi ojiz bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda ta'limiy o'yinlar samarali pedagogik vosita hisoblanadi. O'yin faoliyati orqali bolalarning sezgi organlari faollashadi, kompensator mexanizmlar rivojlanadi va nutqiy faollik ortadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'limiy o'yinlarga asoslangan yondashuv nutqning fonetik-fonematik, leksik va grammatik komponentlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Андреев С.Н. Профессиональная ориентация и обучение детей с ограниченными возможностями здоровья в организациях среднего профессионального образования. Профессиональная ориентация инвалидов и лиц с ОВЗ в системе многоуровневого образования: организационные и методические аспекты: //Материалы Всероссийской научно-практической конференции. – Москва, 18 ноября 2016 года.

2. Власюк М.В. Психолого-педагогическое сопровождение обучающихся с гиперактивностью в условиях общеобразовательной организации, реализующей инклюзивное обучение. Инклюзивное образование: стратегии образовательных траекторий и современные механизмы непрерывного развития: //Материалы

Межрегиональной заочной научно-практической конференции. Кострома, 25 мая – 31 июля 2020.

3. Xoliqov A.Q. “Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bitiruvchi yoshlarning hayotga ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish texnologiyasi”. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2025

4. Самарский научный вестник. 2013. № 1(2). – С. 28 <https://snv63.ru/2309-4370/article/view/22559>

5. Осипова Л.Б. Развитие осязания и мелкой моторики как средства компенсации зрительной недостаточности у младших дошкольников с нарушениями зрения: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2010.

6. Abidova N. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar og‘zaki nutqida kamchiliklarni bartaraf etish texnologiyalari: Ped.fan.f.d-ri.(PhD) diss.... – Toshkent, 2018.

7. S.M.Dangalov o‘zining “Ko‘zi ojiz bolalarga savod o‘rgatish metodikasini takomillashtirish” (PhD) dissertatsiyasi. AVTOREFERATI. Chirchiq – 2026

8. Shomahmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta’lim. Xalqaro va milliy tajribalar.Uslubiy qo‘llanma.Toshkent. “Chashma print” 2011.

9. L.Muminova (va boshqalar); O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika un-ti. – Toshkent: Noshir, 2012.

10. Nurmuhammedova L.Sh. Oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari. Ped.fan.nomz...diss. – Toshkent, 2005.